

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN FOYDALANISH TO‘G‘RISIDA

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Ushbu Qonun quruqlikda, suvda, atmosferada va tuproqda tabiiy erkinlik holatida yashaydigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha turadigan yovvoyi hayvonlarni, shuningdek ilmiy yoki tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida yarim erkin sharoitda yoki sun’iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

2-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifasi

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifasi hayvonot dunyosining yashash sharoitlarini ta‘minlash, ularning xilma-xil turlarini hamda tabiiy galalari butligini va yashash muhitini saqlash maqsadida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, uni tiklash va takror yetishtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

3-modda. Hayvonot dunyosiga nisbatan mulkdorlik

Hayvonot dunyosi davlat mulki umummilliy boylik bo‘lib, undan oqilona foydalanilishi lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

4-modda. Hayvonot dunyosi obyektlari

Hayvonot dunyosi obyektlari quyidagilardan iborat:

kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo‘lgan organizmlar sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, ham quruqlikda ham suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyatsiyalari;

yovvoyi hayvonlardan tashkil topadigan tabiiy hayvon galalari yoki ularning har qanday to‘dalari;

yovvoyi hayvonlarning kamyob yoki yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan turlari;

yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining mahsulotlari.

5-modda. Fuqarolar va jamoat birlashmalarining hayvonot dunyosini hamda uning yashash muhitini muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari

Fuqarolar va jamoat birlashmalari:

hayvonot dunyosini va uning yashash muhitini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradilar;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari ro‘yobga chiqarilishiga ko‘maklashadilar;

ekologiya sohasida jamoatchilik ekspertizasini o‘tkazadilar;

jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasidagi axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oladilar;

hayvonot dunyosiga va uning yashash muhitiga yetkazilgan zararni qoplash masalasini qoʻyadilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar.

6-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi, Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi oʻrmon xoʻjaligi bosh boshqarmasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

(6-moddaning matni Oʻzbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 82-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 153-modda)

7-modda. Davlat ekologik ekspertizasi

Quyidagilar davlat ekologik ekspertizasidan oʻtkazilishi lozim:

barcha turdagi qurilishlar uchun maydon tanlash materiallari, amalga oshirilishi hayvonot olamining holatiga yoki uning yashash muhitiga taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan rejadan oldingi, loyihadan oldingi va loyiha hujjatlari;

ov qilinadigan va baliq ovlanadigan maydonlarni tashkil etish loyihalari;

hayvonlarni yangi iqlimga moslash va duragaylash ishlarining loyihalari;

hayvonot dunyosi va uning yashash muhiti uchun xavfli boʻlgan oʻsimliklarni himoya qilish vositalari.

Hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat ekologik ekspertizasi Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-modda. Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish, hayvonot dunyosi davlat kadastri

Hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini va undan oqilona foydalanilishini taʼminlash uchun hayvonlarning davlat tomonidan hisobga olinishi va ulardan foydalanish hajmlarining hisobga olinishi amalga oshiriladi, hayvon turlarining jugʻrofiy tarqalishi, ularning miqdori toʻgʻrisidagi maʼlumotlar majmuini, ular yashaydigan muhitning tavsifini, hayvonlardan foydalanish tavsifini va boshqa zarur maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan davlat kadastri yuritiladi.

Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va hayvonot dunyosi kadastrini yuritish davlat budjeti mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar har yili oʻzlari foydalanayotgan hayvonot dunyosi obyektlarini hamda ularni muomaladan chiqarish hajmlarini hisobga olib borishlari va olingan maʼlumotlarni Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasiga va davlat statistika organlariga taqdim etishlari shart.

Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish, hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

9-modda. Hayvonot dunyosi monitoringi

Hayvonot dunyosi obyektlarini va ularning yashash muhitini kuzatib borish, ularning holati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻplash, umumlashtirish va tahlil etish atrof tabiiy muhit davlat monitoringi yagona tizimi boʻyicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan nazorat

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan davlat nazorati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari, Oʻzbekiston Respublikasi

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

(10-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan idoraviy ishlab chiqarish va jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

11-modda. Hayvonot dunyosini va uning yashash muhitini muhofaza qilish hamda undan foydalanishga oid asosiy talablar

Hayvonot dunyosini va uning yashash muhitini muhofaza qilish hamda undan foydalanishga oid asosiy talablar quyidagilardan iborat:

hayvonlarning tur bo‘yicha xilma-xilligini va ular galalarining butligini tabiiy erkinlik holatida saqlab qolish;

hayvonlarning yashash muhitini, urchish shart-sharoitlarini va ko‘chib yurish yo‘llarini saqlab qolish;

hayvonot dunyosi obyektlaridan oqilona foydalanish, ularni tiklash va takror yetishtirish;

aholi sog‘lig‘ini saqlash hamda jismoniy va yuridik shaxslarga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida hayvonot dunyosi obyektlarining miqdorini tartibga solish.

12-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid dasturlar hamda tadbirlarni kelishib olish

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar ishlab chiqadigan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid dasturlar hamda tadbirlarning loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishib olinadi.

13-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, shu jumladan uni takror yetishtirishni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini va undan oqilona foydalanilishini, shuningdek uning yashash muhiti muhofaza qilinishini va uning holati yaxshilanishini ta‘minlayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga soliq sohasida va boshqa imtiyozlar berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

II. HAYVONOT DUNYOSIDAN FOYDALANISH. FOYDALANISH TURLARI VA USULLARI

14-modda. Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar

Yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar bo‘lishlari mumkin.

Foydalanuvchilar hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish borasida o‘zlariga tegishli huquqni qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartibda amalga oshiradilar.

15-modda. Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish

Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish umumiy va maxsus foydalanish tartibida amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorda bepul amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan ruxsatnomalar asosida haq evaziga amalga oshiriladi.

16-modda. Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar:

hayvonot dunyosi obyektlaridan ularni berib qo‘yish shartlariga muvofiq foydalanish;

tutib olingan hayvonot dunyosi obyektlariga va ulardan olingan mahsulotga nisbatan mulkdorlik huquqiga egadirlar.

Ov qilish yoki baliq ovlash xo‘jaligini yurituvchi yuridik shaxslar:
yuridik shaxslarga hayvonot dunyosi obyektlaridan belgilangan normalar doirasida foydalanish uchun ruxsatnomalar berishga;

yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosi obyektlaridan ov qilish maqsadida belgilangan normalar doirasida foydalanishi uchun ular bilan shartnomalar tuzishga;

ov va baliq mahsulotini qayta ishlash hamda hayvonot dunyosi obyektlaridan buyumlar ishlab chiqarishga;

hayvonot dunyosi obyektlaridan ishlab chiqarilgan mahsulot va buyumlardan foydalanish hamda ularni sotishga;

sun’iy ravishda yetishtirilib, tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan hayvon turlaridan foydalanishga haqlidirlar.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar:

hayvonot dunyosidan foydalanishning belgilangan normalari va muddatlariga rioya etishlari;

hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini ta’minlashlari;

hayvonot dunyosidan tabiiy galalarining butligi buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan va foydalanishga berib qo‘yilmagan hayvonlarning saqlab qolinishini ta’minlaydigan usullar bilan foydalanishlari;

hayvonlarning yashash muhiti buzilishiga yo‘l qo‘ymasliklari;

hayvonlar miqdorini hamda ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olishlari;

hayvonot dunyosini tiklash va takror yetishtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari
shart.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari mumkin.

17-modda. Hayvonot dunyosidan foydalanish turlari va usullari

Hayvonot dunyosidan foydalanish turlari quyidagilardan iborat:

ov qilish;

baliq ovlash;

hayvonot dunyosidan ilmiy, madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanish;

hayvonlar faoliyatining foydali xususiyatlaridan foydalanish;

hayvonlardan ularning faoliyati mahsulotlarini olish maqsadida foydalanish.

Qonun hujjatlarida hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Hayvonot dunyosidan foydalanish hayvonot dunyosi obyektlarini ularning yashash muhitidan ajratib olib yoki ajratib olmasdan amalga oshirilishi mumkin.

18-modda. Ov qilish

Tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish yoki tutish (otish, tutib olish) ov qilish deb hisoblanadi.

Ov sanoat, havaskorlik va sport maqsadida olib borilishi mumkin.

19-modda. Baliq ovlash

Baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini tutish baliq ovlash deb hisoblanadi.

Baliq ovlash sanoat, havaskorlik va sport maqsadida olib borilishi mumkin.

20-modda. Ov qilish va baliq ovlashning man qilingan usullari

Ov qilish va baliq ovlashda umumxavfli qurollar va usullarni qo‘llash man etiladi.

Falokatga uchragan va o‘zi uchun notabiiy sharoitda turgan hayvonlarni ov qilish man etiladi.

21-modda. Hayvonot dunyosidan ilmiy, madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanish

Hayvonot dunyosidan ilmiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanishga hayvonot dunyosi obyektlarini ularning yashash muhitidan ajratib olib va ajratib olmasdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

22-modda. Hayvonlarning xususiyatlaridan foydalanish

Hayvonlarning foydali xususiyatlaridan tuproq hosil qiluvchilardan, muhitning tabiiy sanitarlaridan, o'simliklarni changlatuvchilardan, shuningdek hayvonot dunyosi obyektlarining boshqa xususiyatlaridan foydalanish ularni yashash muhitidan ajratib olmasdan va ularga yoki ular yashaydigan muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi.

23-modda. Hayvonlardan ularning mahsulotlarini olish maqsadida foydalanish

Hayvonlardan ularning mahsulotlarini olish maqsadida foydalanishga hayvonot dunyosi obyektlarini yashash muhitidan ajratib olmasdan va ularni nobud qilmasdan, shuningdek ular yashaydigan muhitni buzmasdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

24-modda. Hayvonot dunyosi obyektlarining miqdorini tartibga solish

Hayvonot dunyosi obyektlarining miqdorini tartibga solish kvotalar asosida amalga oshiriladi. Kvotalar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan hisobga olish ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Hayvonlarning ayrim turlarini muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ana shu turdagi hayvonlardan foydalanishga yoki foydalanishning ayrim turlariga cheklashlar yoxud taqiqlashlar belgilanishi mumkin.

Aholi sog'lig'ini saqlash, qishloq xo'jalik mollari va boshqa uy hayvonlari kasalliklarga chalinishining oldini olish, yuridik va jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishining oldini olish, hayvonot dunyosining turlari bo'yicha xilma-xilligini saqlab turish maqsadida yovvoyi hayvonlar ayrim turlarining miqdorini tartibga solish tadbirlari o'tkaziladi.

Ayrim turdagi hayvonlar miqdorini tartibga solish tadbirlarning boshqa turlariga zarar yetkazilishini istisno etadigan va ularning yashash muhiti saqlanib qolishini ta'minlaydigan usullar bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalarini hisobga olib hamda yer, suv va o'rmon zaxiralarini muhofaza qilishni amalga oshiradigan tegishli davlat organlari bilan kelishgan holda amalga oshirilishi lozim.

Miqdori tartibga solinishi lozim bo'lgan hayvon turlari va ularning miqdorini tartibga solish tadbirlarini o'tkazish qonun hujjatlarida belgilanadi.

25-modda. Ov qilish va baliq ovlash xo'jaligini yuritish

Ov qilish va baliq ovlash xo'jaligini yuritish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan: ov qilinadigan va baliq ovlanadigan yer-suv maydonlari loyihalarining davlat ekologiya ekspertizasi;

hayvonlar miqdorini hamda ov qilinadigan va baliq ovlanadigan maydonlar holatini hisobga olish materiallari;

hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini beradigan kvotalar va ruxsatnomalar, hayvonot dunyosi obyektlarini va ular yashaydigan muhitni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, ularni takror yetishtirish tadbirlarini o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ov to'g'risidagi hamda ov qilish va baliq ovlash xo'jaliklarini yuritish to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

26-modda. Hayvonlarni boshqa joyga ko'chirish, iqlimga moslash va chatishtirish

Yovvoyi hayvonlarni yangi yashash joylariga ko'chirishga, fauna uchun yangi bo'lgan yovvoyi hayvon turlarini iqlimga moslashga, shuningdek yovvoyi hayvonlarni chatishtirish tadbirlarini o'tkazishga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ruxsatnomasi

bo'yicha ilmiy-tadqiqot va xo'jalik maqsadlarida yo'l qo'yiladi. Yovvoyi hayvonlarni o'zboshimchalik bilan boshqa joyga ko'chirish, iqlimga moslash va chatishtirish man etiladi.

27-modda. Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini bekor qilish

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

foydalanish zarurati qolmaganda yoki undan voz kechilganda;

foydalanishning belgilangan muddati o'tganda;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganda;

hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish maqsadida ularni foydalanishdan ajratib olish zarurati tug'ilganda;

foydalanish huquqi berilgan yuridik shaxs tugatilganda.

Qonun hujjatlarida hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini bekor qilish uchun boshqa asoslar ham nazarda tutilishi mumkin.

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi ruxsatnomalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish yo'li bilan tugatiladi.

28-modda. Zoologiya kolleksiyalari yaratish va ularni to'ldirib borish

Yuridik shaxslar tomonidan zoologiya kolleksiyalari yaratish va ularni to'ldirib borish maqsadida hayvonlarni ular yashaydigan muhitdan ajratib olish yo'li bilan hayvonot dunyosidan foydalanish belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Zoologiya kolleksiyalarini yaratish, ularni to'ldirib borish, asrash, ulardan foydalanish va ularni hisobga olish tartibi, zoologiya kolleksiyalari bilan savdo qilish qoidalari, shuningdek zoologiya kolleksiyalari obyektlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga jo'natish va olib chiqish qoidalari qonun hujjatlarida belgilanadi.

29-modda. Zoologiya kolleksiyalarining davlat hisobini olib borish

Ilmiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy yoki estetik qimmatga ega bo'lgan zoologiya kolleksiyalarining davlat hisobi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasida olib borilishi lozim.

Bunday kolleksiyalarning egalari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosi obyektlari kolleksiyalarini asrash, hisobga olish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etishlari shart.

III. HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH

30-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish tadbirlari

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish:

hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va ularni takror yetishtirish qoidalari va normalarini belgilash;

hayvonot dunyosidan foydalanishda cheklashlar va taqiqlar belgilash;

hayvonot dunyosidan o'zboshimchalik bilan foydalanishning va undan foydalanish borasida belgilangan tartibni boshqacha buzishlarning oldini olish;

hayvonlarning yashash muhiti, ularning urchishi shart-sharoitlari va ko'chib yurish yo'llari muhofaza qilinishini tashkil etish;

xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish, transport vositalardan foydalanish paytida hayvonlar nobud bo'lishining oldini olish;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish;

(30-moddaning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-yanvardagi O'RQ-278-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 1-2-son, 1-modda)

kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini tutqunlikda urchitish;

hayvonlar kasallikka chalinganda, ularning tabiiy ofatlar va boshqa sabablar oqibatida nobud bo'lishi xavfi tug'ilganda ularga yordam berish;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish tadbirlarini asoslashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

31-modda. Hayvonot dunyosining holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyatga qo'yiladigan talablar

Hayvonot dunyosining holatiga, yashash muhitiga, hayvonlarning urchish shart-sharoitlari va ko'chib yurish yo'llariga ta'sir ko'rsatadigan faoliyat hayvonot dunyosi muhofaza qilinishini ta'minlaydigan talablarga rioya etgan holda amalga oshirilishi lozim.

32-modda. Tabiat obyektlaridan foydalanuvchilarning huquqlarini cheklab qo'yish

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish manfaatlarini ko'zlab yerdan, o'rmonlardan, suvdan foydalanuvchilarning, suv iste'molchilarining va yer ostidan foydalanuvchilarning huquqlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi hamda ularning zimmasiga tegishli majburiyatlar yuklanishi mumkin.

(32-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 25-dekabrda O'RQ-240-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT 2009-y., 52-son, 555-modda)

33-modda. Xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni amalga oshirish paytida yovvoyi hayvonlar kasallikka chalinishining va nobud bo'lishining oldini olish

Yuridik va jismoniy shaxslar har qanday turdagi xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni amalga oshirish paytida yovvoyi hayvonlar kasallikka chalinishi va nobud bo'lishining oldini olish choralarini ko'rishlari shart.

Davlat veterinariya xizmati organi va davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati organi hayvonot dunyosi obyektlarining kasalliklari paydo bo'lishi va tarqalishi ustidan tekshiruv va nazoratni amalga oshiradilar, hayvonot dunyosi obyektlari kasallikka chalinishining barcha aniqlangan hollarini ro'yxatga oladilar va kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olish hamda ularni tugatish yuzasidan zarur choralar ko'radilar.

O'simliklarni yoqish, hayvonot dunyosi obyektlari va ular yashaydigan muhit uchun xavfli bo'lgan materiallar, xomashyo va ishlab chiqarish chiqindilarini yovvoyi hayvonlar kasalliklarga chalinishi va nobud bo'lishining oldi olinishini kafolatlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirmasdan saqlash va qo'llash man etiladi.

O'simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o'sishini tezlashtirish omillarini, mineral o'g'itlarni va xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan boshqa preparatlarni qo'llanish paytida qonun yashash muhitini muhofaza qilish talablari hisobga olinishi zarur. Ayrim hududlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sanitariya tegralari belgilanib, ularda o'simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o'sishini tezlashtirish omillarini, mineral o'g'itlarni va boshqa preparatlarni qo'llanish taqiqlanadi.

34-modda. Hududni xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish paytida hayvonlarning yashash muhitini va ularning urchish sharoitlarini saqlash tadbirlari

Aholi punktlari, korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalashtirish hamda qurish, mavjud texnologiya jarayonlarini takomillashtirish va yangilarini joriy etish, botqoqlashgan va butazor hududlarni xo'jalik oborotiga kiritish, yerlarni melioratsiyalash, o'rmondan foydalanish, geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish, foydali qazilmalarni qazib olish, qishloq xo'jalik mollarini o'tlatish va haydab o'tish joylarini aniqlash, sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish va aholi ommaviy dam oladigan joylarni tashkil etish paytida hayvonlarning yashash muhitini hamda ularning urchish sharoitlarini saqlab qolish tadbirlari nazarda tutilishi va amalga oshirilishi, shuningdek yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti sifatida alohida qimmatga ega bo'lgan uchastkalarining daxlsizligi ta'minlanishi lozim.

35-modda. Yovvoyi hayvonlarning ko'chib o'tish yo'llarini, yashash va urchish joylarini saqlab qolish

Transport magistrallarini, elektr uzatish va aloqa liniyalarini, shuningdek gidrotexnika inshootlarini joylashtirish, loyihalash va qurish paytida yovvoyi hayvonlarning ko'chib o'tish yo'llari, yashash va urchish joylari saqlab qolinishini ta'minlaydigan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

36-modda. Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini muhofaza qilish

Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonot dunyosi turlari Qizil kitobga kiritiladi.

Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarining nobud bo'lishi, miqdori kamayib ketishi yoki ularning yashash muhiti buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

37-modda. Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini saqlab qolish chora-tadbirlari

Tabiiy sharoitlarda takror yetishtirish imkoniyati bo'lmagan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini saqlab qolish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi ana shu turdagi hayvonlarni urchitish uchun zarur shart-sharoit yaratish chora-tadbirlarini ko'rishlari shart.

(37-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydaga 82-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 153-modda)

38-modda. Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini tutish tartibi

Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlarni maxsus yaratilgan sharoitda urchitish va keyinchalik tarqatish, shuningdek ilmiy-tadqiqot maqsadlari va boshqa maqsadlar uchun tutishga O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining taqdimnomasi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi beradigan ruxsatnomalar asosida yo'l qo'yiladi.

IV. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

39-modda. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish tufayli yetkazilgan zararni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashlari shart. Zararni qoplash aybdorlarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikdan ozod qilmaydi.

40-modda. Qonunga xilof ravishda tutilgan hayvonot dunyosi obyektlarini, ulardan olingan mahsulotni, hayvonlarni qonunga xilof ravishda tutish quroli va vositalarini olib qo'yish

Qonunga xilof ravishda tutilgan hayvonot dunyosi obyektlari, ulardan olingan mahsulot, qonunga xilof ravishda tutish quroli va vositalari, shu jumladan transport vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo'yilishi yoki musodara qilinishi lozim.

Qonunga xilof ravishda tutilgan hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotni aybdor shaxslardan olib qo'yish imkoni bo'lmagan taqdirda, ularning qiymati qonun hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlar va tartibda undiriladi.

41-modda. Hayvonot dunyosidan foydalanish masalalariga doir nizolarni hal etish

Hayvonot dunyosidan foydalanish masalalariga doir yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1997-yil 26-dekabr,
545-I-son

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 1-son, 14-modda; 2000-y., 5-6-son, 153-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 52-son, 555-modda; 2011-y., 1-2-son, 1-modda; 2014-y., 36-son, 452-modda)